




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

BOYSUN TUMANI BOG'DORCHILIK LEKSIKASI

BOYSUN DISTRICT HORTICULTURAL LEXICON

Marjona MUSULMONOVA,

ToshDO'TAU magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MYFO7628

Annotation: *This article explores the formation, development, and scholarly investigation of sector-specific vocabulary. Particular attention is paid to scientific perspectives on agricultural and livestock-related lexicon. The study also focuses on horticultural vocabulary as one of the significant branches of sector-specific lexis, describing the names of fruit varieties and their distinctive features. Furthermore, a number of horticulture-related terms are presented, and their usage patterns and semantic characteristics are analyzed in detail.*

Key words: *dialect, intermediate dialect, area.*

Til – jamiyat taraqqiyoti va inson faoliyatining barcha sohalari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab va serqirra hodisadir. Jamiyat rivojlangan sari ilm-fan, texnika, madaniyat hamda kasb-hunar tarmoqlari kengayib boradi va bu jarayon tilning lug'at boyligida ham o'z aksini topadi. Aynan shu ehtiyoj natijasida muayyan faoliyat sohasi doirasida qo'llaniladigan maxsus so'z va atamalar shakllanadi. Bunday leksik birliklar tilshunoslikda sohaviy leksika deb yuritiladi. Sohaviy leksika muayyan soha vakillari o'rtasidagi muloqotni aniqlashtirish, ilmiy va kasbiy axborotni ixcham hamda tushunarli tarzda ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois sohaviy leksikani o'rganish til taraqqiyoti, terminologiya masalalari hamda nutq madaniyatini tahlil etishda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Sohaviy leksikaning ilmiy soha leksikasi, kasb-hunar leksikasi, texnik soha leksikasi, harbiy leksikasi kabi bir qancha turlari mavjud. O'zbek tilshunosligida kasb-hunar leksikasi va shevalarni o'rganish XX asrda keng ommalashgan an'anaviy tilshunoslik metodlari asosida amalga oshirilgan. Xususan, N. Mamatov, O. Qurbonov, T. No'monov, Yu. Eshonqulov, A. Shermatov, B. Jo'rayev, T. Nafasov, S. Rahimov kabi tilshunoslarning ishlarida mazkur masalalar tahlil etilgan. Mustaqillik yillarida o'zbek tili sohaviy leksikasi, gidronimlar, Oltoy tillaridagi mushtarak maishiy leksika, tarixiy-badiiy manbalar leksikasi bo'yicha ham salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sohaviy leksika bo'yicha hozirgi kunga qadar ko'plab ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Saidova Muhabbatxonning "Namangan shevalaridagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik tahlili" mavzusidagi dissertatsiya ishida qarindoshlik leksikasining tarixiy va zamonaviy qo'llanish xususiyatlari atroflicha o'rganilgan. Mazkur ishda qarindoshlik terminlarining ma'no taraqqiyoti, semantik o'zgarishlari va hududiy differensial xususiyatlari ilmiy asosda tahlil etilgan. Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri shundaki, u Namangan viloyati shevalari materiallari asosida olib borilgan bo'lib, hududiy leksikaning o'ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, dissertatsiyada nikohgacha bo'lgan qarindoshlik terminlari hamda nikohdan so'ng shakllangan qarindoshlik terminlari tizimli ravishda guruhlangan va To'raqo'rg'on, Chust, Pop, Kosonsoy, Zadaryo, Norin, Uchqo'rg'on, Yangiqo'rg'on tumanlarida qo'llaniladigan terminlar qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Natijada mazkur terminlarning semantik farqlari, umumiy va xususiy jihatlari hamda ularning hududlar kesimidagi ma'no xususiyatlari aniq misollar orqali yoritib berilgan [Saidova M., 1995:138]. Shuningdek, Bo'ronov Mahmudning "O'zbek shevalaridagi chorvachilik terminlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi chorvachilik leksikasini o'rganishga bag'ishlangan muhim tadqiqotlardan biridir. Mazkur ishda Qoraqalpog'iston hududida yashovchi o'zbeklar shevalarida uy hayvonlarining nasli, jinsi, rangi hamda boshqa farqlovchi belgilariga ko'ra nomlanishini ifodalovchi ko'plab terminlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida chorvachilikka oid sohaviy birliklarning semantik xususiyatlari va hududiy qo'llanish doirasi aniqlab berilgan. Nomzodlik ishining empirik bazasi

sifatida To‘rtko‘l, Beruniy, Xo‘jayli va Qo‘ng‘irot hududlarida yashovchi sheva vakillari nutqidan olingan uy hayvonlari nomlari xizmat qilgan. Ushbu materiallar asosida chorvachilik terminlarining hududiy variantlari, ularning leksik-semantik farqlari hamda umumiy va xususiy jihatlari qiyosiy tahlil asosida yoritilgan bo‘lib, tadqiqot o‘zbek shevalaridagi sohaviy leksikaning boyligini ko‘rsatishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi [Bo‘ronov M., 1972: 255]. Jabborov Xo‘jamurodning “O‘zbek tilining dehqonchilik leksikasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi o‘zbek tilshunosligi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda dehqonchilik sohasida qo‘llaniladigan leksemalarning tarixiy-tadrijiy taraqqiyoti hamda tarixiy-qiyosiy xususiyatlari atroflicha tahlil etilgan. Shuningdek, ishda dehqonchilik leksikasining o‘zbek tili lug‘at tizimidagi o‘rni va salmog‘i yoritilib, sohaviy leksikaning shakllanishi va rivojlanishini aniqlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy xulosalar berilgan [Jabborov X., 2016:296].

Bog‘dorchilik qadimdan o‘zbek xalqining xo‘jalik hayotida muhim o‘rin tutib kelgan sohalardan biri bo‘lib, bu soha bilan bog‘liq faoliyat tilning lug‘at tarkibida boy va rang-barang leksik qatlamni shakllantirgan. Mevali daraxtlar, ularni parvarishlash, hosil yetishtirish, yig‘im-terim jarayonlari hamda bog‘dorchilik asbob-uskunalariga oid tushunchalarni ifodalovchi so‘z va atamalar bog‘dorchilik leksikasini tashkil etadi. Ushbu leksik birliklar xalqning ko‘p asrlik tajribasi, turmush tarzi va madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, til taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bog‘dorchilik leksikasi o‘zbek tilidagi sohaviy leksikaning muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat amaliy ahamiyatga, balki ilmiy jihatdan ham katta qiziqish uyg‘otadi. Chunki mazkur leksik qatlamda tarixiy-tadrijiy rivojlanish, hududiy farqlanish hamda semantik o‘zgarishlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois bog‘dorchilikka oid terminlarni tizimli ravishda o‘rganish o‘zbek tilining lug‘at boyligini tadqiq etish, sohaviy leksikaning shakllanish qonuniyatlarini aniqlash va terminologik merosni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada Boysun hududida qo‘lanilib keladigan bazi bog‘dorchilikka oid so‘zlar va meva navlarining nomlari keltirib o‘tilgan.

Bog‘dorchilik mahsuloti bo‘lgan turshak, qoqi hatto qish va bahorda (mevalar pishib, to‘kin-sochin bo‘lgunicha) ham kishilarga ozuqa bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa o‘rik sharbati deb nomlanuvchi chanqovbosdi ichimlikning to‘rt fasl ham xaridorgirliigi fikrimizning isbotidir. Shevalarda ayni shu tushunchani nomlovchi g‘o‘lin so‘zining mavjudligi uni so‘z birikmasi sifatida emas, alohida leksema sifatida nomlashga imkoniyat beradi.

Bog‘ot shevasida o‘rikning “g‘o‘lung” tarzida atalishi, shuningdek, Buxoro shevasida qaynatilgan o‘rikning “g‘o‘lunob” deb nomlanishi, Qorako‘l shevasida “g‘o‘lin” dialektizmining turshak ma‘nolarida qo‘llanilishi g‘o‘lin so‘zining o‘rik bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu so‘zlar g‘o‘lin dialektizmining o‘rik sharbati ma‘nosida ommalashishiga va tez tushunishli bo‘lishiga ham xizmat qiladi. Ushbu leksema Boysun aholisi nutqida “g‘o‘ling” kabi qo‘llanilib keladi.

“Otashak” dialektizmi mevaning pishmasdan va uzilmasdan oldin quyosh issig‘i ta‘sirida suvi qochib, so‘lib qolishini ifodalaydi (mazkur so‘z tojik tilida chaqmoq, momoqaldiroq; yiring ma‘nolariga egaki, u o‘zbek shevalaridagi tushunchadan ancha farqli). Ba‘zi shevalarda bu tushuncha garm urishi, issiq urishi kabi birikmalar bilan ham nomlanadi. Lekin otashak so‘zi yaxlit bir asosdan iborat atama sifatida mazkur tushunchani nomlovchi maqbul so‘z hisoblanadi.

Quyidagi jadvallarda hudud aholisi nutqida faol bo‘lgan meva nomlari va ularning shakli haqida to‘xtalgan.

T/r	Tok uzum nomlari	Mavsumi	Rangi va shakli
	Toyfi sort	Qishgi	Gulobi (pushti) novvot rang (sariq), yumaloq
	Husayni	Yozgi (avgust)	Yashil, oltin rang, uzunchoq

	Qora kishmish	Kuzgi (sentyabr)	Qora, dumaloq
	Rizamand	Yozgi	Och qizil
	Vinniy sort (sharobiy uzum)	Kuz oxiri	Oq
5.	Kesaband (kisaband, pisaband)	Kuzgi	Qora
6.	Jauz (mayiz uzum)	Kuzgi (sentyabr)	Oq, sariq, yumaloq
7.	Shuturdand on (tuyatish)	Kuzgi	Sariq, uzuncharoq
8.	To‘dakchi	qishgi	Oq
9.	Kishmish	Kuzgi	Sariq, qora
10.	Chilgi	Yozgi (iyul)	Qizil

1-jadval

1-jadvalda o‘nta uzum navlarining Boysun tumanida qanday nomlanishi keltirilgan bo‘lib, bu nomlanishlarning ko‘pchiliklarida fors-tojik tilining ta‘siri yaqqol namayon bo‘ladi. Misol uchun: “shuturdandon” leksemasi o‘zbek tilida “tuyatish” deb tarjima qilinadi. Tojik tilida tuya-shutur, tish-dandondir. Bu markaz aholisining ko‘pchiligi tojik tilida muloqot qilishadi. Buning natijasida tojik so‘zlar shevalariga singib ketgan. Bu nomlanish mevaning tashqi ko‘rinishiga ham bog‘liqdir. Tuyaning rangi va uning uzunchoqligi uzumning tashqi ko‘rinishiga o‘xshatilgan. Uzumning bu nomlari boshqa hududlarda deyarli iste‘molda emas.

/r	Olma navlari	Mavsumi	Rangi
	Boboki olma (mayiskiy)	Bahor oxiri	Yashil, sariq
	Kadi sort	Kuzgi	Sariq
	Pispisak, kadiseb	Bahor oxiri	Och sariq, och yashil
	Semerinka (simirinka)	Kuzgi (oktabr)	Yashil oq nuqtalari bor
	Golden	Kuzgi (sentabr)	Novvot rang, och yashil sarg‘imtir
	Kripson	Kuzgi (oktabr)	To‘q qizil, jigari rang
	Jannati(oy)	Kuzgi (oktabr)	Qizil
	Kibriston	Kuzgi	Sarqi, qizil aralash
	Besh yulduz	Yozgi	Qizil, yashil aralash

2-jadval

Boysunda olmaning yuqoridagi nomlari qo‘llaniladi. Bu nomlanishda ularning tuzulishi, rangi, shakli va yetishtiriladigan o‘rniga e‘tibor berilgan. Bu jadvaldagi “kadiseb” deb nomlangan

meva nomi ham tojik tilidan olingan. Kadiseb “qovoqolma” deb tarjima qilinadi. Tojik tilida qovoq-kadi, olma-sebdir. Olmaning tuzulishi qovoq kabi katta va rangi o‘xshaydi.

/r	Bodom nomlari	Mavsumi	Nomlanish xususiyatlari
	Toshbodom	Kuzgi (sentabr)	Chaqish uchun toshdan foydalaniladi
	Tishbodom	Kuzgi (sentabr)	Chaqish uchun tishdan foydalaniladi
	Qog‘ati	Yozgi (iyul)	Qo‘l yordami bilan chaqib iste‘mol qilsa bo‘ladi

3-jadval

Bodomning bu nomlanishi uning tashqi holatiga bog‘lanib qo‘yilgan. Qog‘at deb atalgan bodom turi boshqa sheva vakillarida uchramaydi.

Bog‘dorchilik so‘zlari va atamalarining shevalarda qanday shakllanishi va rivojlanishi o‘zbek tilining hududiy farqlari, ijtimoiy va madaniy jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek shevalaridagi bog‘dorchilik leksikasi, bir tomondan, umumiy til tizimiga kiruvchi atamalarining hududiy variantlari sifatida, boshqa tomondan esa, faqat ma‘lum bir hududda ishlatiladigan maxsus so‘zlar sifatida ko‘riladi.

Xulosa qilib, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sohaviy leksika tilning lug‘at boyligini shakllantiruvchi muhim qatlamlardan biri bo‘lib, uning taraqqiyoti jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivoji bilan chambarchas bog‘liqdir. Dehqonchilik va chorvachilik leksikasiga oid birliklar o‘zbek tilida qadimdan shakllanib, bugungi kunga qadar faol qo‘llanilib kelayotgan sohaviy terminlar tizimini tashkil etadi. Mazkur sohalarga oid leksik birliklarning tarixiy-tadrijiy rivoji va hududiy xususiyatlari ularning til tizimidagi o‘rni va ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi. Shuningdek, sohaviy leksikaning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan bog‘dorchilik leksikasi meva navlari nomlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari orqali xalqning ko‘p asrlik tajribasi hamda amaliy faoliyatini aks ettiradi. Tadqiqot davomida keltirilgan bog‘dorchilikka oid atamalar va ularning qo‘llanish holatlari bu leksik qatlamning semantik boyligi va funksional imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Umuman olganda, sohaviy leksikani, xususan bog‘dorchilik leksikasini tizimli ravishda o‘rganish o‘zbek tilining lug‘at tarkibini boyitish, terminologik merosni saqlash va ilmiy muomalaga kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b.
2. Bo‘ronov M. O‘zbek shevalaridagi chorvachilik terminlari. Filol.fan.nomz.diss. – Toshkent, 1972. – 255 b.
3. Jabborov X. O‘zbek tilining dehqonchilik leksikasi. – Qarshi: Nasaf, 2016. – 296 b.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. III (forscha, tojikcha birliklar). – Toshkent: Universitet, 2009. – 283 b.
5. Saidova M. Namangan shevalaridagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik tahlili. Filol.fan.nomz.diss. – Toshkent, 1995. – 138 b.
6. Ёўлдошев Т. Тожикистон ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1986. – 98 б.
7. <https://translate.google.co.uz>.